TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020..22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KUATBEK GULNAR KUATBEKOVNA

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTONDA MAHALLIY HOKIMIYAT VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 342.55

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Kuatbek Gulnar Kuatbekovna
O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy masalalari 3

Куатбек Гулнар Куатбековна
Организационно-правовые вопросы обеспечения открытости деятельности представительных органов местной власти в Узбекистане и Казахстане..... 21

Kuatbek Gulnar Kuatbekovna
Organizational and legal issues of ensuring openness of activities of local authorities’ representative bodies in Uzbekistan and Kazakhstan ……..... 41

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati
Список опубликованных научных работ
List of published scientific works……..…..…… 45

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020..22.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

KUATBEK GULNAR KUATBEKOVNA

O‘ZBEKISTON VA QOZOG‘ISTONDA MAHALLIY HOKIMIYAT VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGINI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY MASALALARI

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq. Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1031-raqam bilan ro‘yxatga olingan

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yo‘ldoshev Azizjon Ergash o‘g‘li,** yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Ismailov Baxodir Islamovich,** yuridik fanlar doktori, professor
	Xamdamova Shirin Mirzayuldashevna, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02-raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 17-dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +998 71 233-66-36; faks: +998 71 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1448-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +998 71 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-dekabrda tarqatildi.

(2025-yil 3-dekabrdagi 32-raqamli reyestr bayonnomasi)

R.R. Xakimov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F. Mahmudov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori

I.R. Bekov,
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda Barqaror rivojlanishning 16-maqsadiga [1] erishish uchun mahalliy hokimiyat organlari transparentligini va jamoatchilikning axborotni erkin olishini ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Biroq 2024-yildagi “Ochiq hukumat” indeksi natijalari ushbu sohada jiddiy muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. 142 ta mamlakatdan 72 tasi maksimal balning 50 foiziga ham erisha olmagani[2] mavjud vaziyatni chuqur o‘rganish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Jahonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari va boshqa ommaviy organlar faoliyati transparentligini ta’minlashning xalqaro standartlari, huquqiy asoslari, baholash mezonlari, texnologiyalari, shakl va usullarini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Transparentlik ommaviy boshqaruv, jumladan, boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligi, ushbu jarayonda fuqarolar ishtirokini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytirish, kambag‘allikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish va boshqa maqsadlarga erishish omili hisoblanadi. Mazkur holat tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy vakillik organlari faoliyatining transparentligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ikkala davlat o‘z konstitutsiyalarida axborot olish huquqini mustahkamlab, axborot ochiqligi to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qildi, davlat ommaviy axborot internet resurslarini ishga tushirdi, jumladan “ochiq byudjet” onlayn platformalarini ham. Shu bilan birga, mahalliy vakillik organlarining transparentligini boshqarish, uni ta’minlash usullari va ushbu sohadagi qonunchilik buzilishi uchun javobgarlikka tortishdagi kamchiliklar mazkur mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston va Qozog‘iston konstitutsiyalari, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi (2014), “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi (2002 g.), “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi (1997) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF–98-sonli (2025), “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli (2022), “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–6247-sonli (2021) farmonlari, Qozog‘istonning “Axborotni erkin olish to‘g‘risida”gi (2015), “Jamoatchilik kengashlari to‘g‘risida”gi (2015) qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] Цель 16 // https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/peace-justice/

[2] Countries Scored by Open Government // https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/global/2024/Open%20Government/ranking

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida olib borilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligini ta’minlash masalasining o‘rganilganlik darajasini xolisona aks ettirish maqsadida aniqlangan manbalar uch guruhga bo‘lindi.

Birinchi guruh manbalariga O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa davlatlarda mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligi to‘g‘risidagi ilmiy ishlar, bu sohadagi xalqaro va milliy standartlar kiritildi.

Mahalliy hokimiyat vakillik organlari uchun shaffoflik bo‘yicha xalqaro standartlar ilk bor 2020-yilda ishlab chiqildi. Ular Yevropa Kengashining mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlari kongressining 424- va 435-sonli tavsiyalarida bayon etilgan. Shu bilan birga, ushbu tavsiyalarda veb-saytga joylashtiriladigan axborot ro‘yxatini aniqlash, ochiq majlislarni tashkil qilish, deputatlar tomonidan axborot taqdim etish masalalari qamrab olinmagan va ularning ba’zilari izohga muhtoj. Qisman ushbu masalalar rivojlangan davlatlarning qonunchiligida va ilmiy ishlarda hal etilgan.

O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat vakillik organlarining veb-saytlarini yuritish, deputatlar tomonidan saylovchilarga o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot berish masalalarini D. Bekchanov, Sh. Asadov va M. Nurullayeva o‘rgangan, Z. Isroilova, A.Yo‘ldoshev, M. Hasanova va M. Yelshov esa ular faoliyatining ochiqligini baholash mezonlarini taklif etgan. Qozog‘istonda bunday mezonlarni O. Bondarenko, M. Gabdualiyev, A. Suleymanov va A. Chebotaryov ishlab chiqqan. “Huquqiy siyosatni tadqiq qilish markazi” jamoat fondi tomonidan maslahatlar majlislarini o‘tkazish to‘g‘risida aholini xabardor qilish va ularda hozir bo‘lishni tashkil etishni huquqiy tartibga solish bo‘yicha takliflar, “Milliy byudjet tarmog‘i” nodavlat tashkiloti tomonidan mahalliy byudjetlarning ochiqligi indeksi ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda transparentlik bilan bog‘liq tushunchalarga, ochiq majlislar va axborotni oshkor qilishning boshqa usullariga turlicha yondashuvlarning mavjudligi, ushbu sohadagi qonun hujjatlarining ayrim normalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanmaganligi kabi masalalar chuqur o‘rganilmagan[1].

Ikkinchi guruh manbalarida mahalliy vakillik organlari faoliyatining transparentligini ta’minlashdagi mavjud ayrim muammolar tadqiq etilgan. Bu manbalar O‘zbekiston, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlar davlat organlarining, jumladan parlamentlari faoliyatining transparentligi bo‘yicha tadqiqotlarni, xalqaro (Parlament ochiqligi deklaratsiyasi) va milliy (Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa davlatlarning axborot erkinligi to‘g‘risidagi qonunchiligi) standartlarni qamrab oladi.

[1] Mazkur manbalarning to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

Davlat organlari faoliyatining transparentligi masalasi Sh.G. Asadov, A.N. Nazarov, B.I. Ismailov, A.X. Radjapov, G.A. Rasulova, A.E. Yo‘ldoshev, Sh.U. Yakubov, L.T. Januzakova, M.K. Jakip, A. Dosan, A.K. Iliyas, V.K. Shaydullin, K.B. Isatayev, I.A. Damm, Y.A. Akunchenko, N.V. Shedrin, P.V. Solovyov, Y.D. Levashova, M.A. Udodova, T.X. Ablyazov, A. Dutsu, M. Diakonu, N. Koyffer, V. Mabillard, X. Darbishir, E. Sheperd va boshqa tadqiqotchilar ishlarida o‘rganilgan[1].

Yuqoridagi tadqiqotlar natijalarini inobatga olgan holda mahalliy vakillik organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborot ro‘yxati tuzilgan, ularning “ochiq hay’at majlislari” mazmuni yoritilgan, vakillik organlari faoliyatining transparentligini ta’minlash mexanizmi ishlab chiqilgan va boshqa muammolar hal qilingan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarda transparentlikka oid tushunchalar va axborotni taqdim qilishning ayrim usullari mazmuniga nisbatan kelishmovchiliklar hali hal etilmagan.

Uchinchi guruh manbalari axborot huquqining metodologik asoslarini tashkil etadi. O‘zbekiston va Qosog‘istonda qabul qilingan ommaviy organlar transparentligi bo‘yicha konseptual hujjatlar, indekslar, reytinglar va boshqa xalqaro standartlar, ularni takomillashtirish va joriy etish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar aniqlangan muammolarni hal qilishning nazariy asoslari bo‘lib xizmat qildi. Mazkur sohadagi xalqaro standartlar Tobi Mendelning qiyosiy tadqiqotida, shuningdek, YUNESKO, Artikl 19, “Ochiq hukumat” sherikligi, BMTning inson huquqlari qo‘mitasi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tavsiyalarida umumlashtirilgan va sharhlangan[2].

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqot maqsadi transparentlik nazariyasi, ilmiy tadqiqotlar natijalari, xalqaro standartlar va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining transparentligi to‘g‘risidagi O‘zbekiston va Qozog‘iston qonunchiligi hamda uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ommaviy organlar transparentligi bilan bog‘liq atamalar mazmunini aniqlashtirish va uyg‘unlashtirish;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari va boshqa ommaviy organlar transparentligining xalqaro standartlarini o‘rganish hamda ularni O‘zbekiston va Qozog‘istonda joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari transparentligi mexanizmini takomillashtirishning huquqiy jihatlarini tadqiq etish

axborotni oshkor qilish usullarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

[1] Mazkur olimlar ishlarining to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.
[2] Mazkur manbalarning to‘liq ro‘yxati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida ko‘rsatilgan.

raqamlashtirish sharoitida mahalliy hokimiyat vakillik organlarining internet resurslaridan foydalanishimkoniyatlarini kengaytirish yo‘llarini belgilash;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborotni oshkor qilishni tashkil etish masalalarini o‘rganish;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligini baholash tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston va Qozog‘istonning transparentlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik uchun ommaviy javobgarlikni kuchaytirish istiqbollarini aniqlash va boshqalar.

Tadqiqot obyekti O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari, shu jumladan, ularning doimiy va muvaqqat komissiyalari, partiya birlashmalari va deputatlar faoliyati to‘g‘risidagi axborotning ochiqligini ta’minlashdan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqot predmetini O‘zbekiston, Qozog‘iston va ayrim xorijiy davlatlarning mahalliy hokimiyat vakillik organlari transparentligi to‘g‘risidagi qonunchiligining normalari, ularni qo‘llash amaliyoti, xalqaro standartlar, indekslar, ilmiy qarashlar, ushbu sohadagi sotsiologik va boshqa tadqiqotlar natijalari tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qiyosiy-huquqiy, rasmiy-huquqiy, mantiqiy, ijtimoiy so‘rov, tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, ekstrapolyatsiya, lingvistik, tizimli va boshqa usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy hokimiyat vakillik organlarining ochiq hay’at majlislari tushunchasiga ularning sessiyalari va hay’at organlari majlislari, shuningdek, doimiy va muvaqqat komissiyalar majlislari, ularning vakolatlari doirasidagi hamda foydalanilishi cheklanmagan axborotga taalluqli bo‘lmagan masalalar muhokama qilinadigan konferensiyalar va boshqa tadbirlarni kiritish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari huzuridagi kompensatsiya komissiyalari zimmasiga ularning majlislarini ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillari ishtirokida ochiq o‘tkazish majburiyatini yuklash transparentlik va jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosiga xizmat qilishi asoslantirilgan;

deputatlik faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini, o‘z faoliyati to‘g‘risida saylovchilarni doimiy xabardor qilib borishini deputat odobi prinsipi sifatida belgilash xalq vakillarining mahalliy hokimiyat vakillik organlari transparentligi to‘g‘risidagi qonunchilikni bajarish mas’uliyatini kuchaytirish va uning muntazam takomillashuviga xizmat qilishi asoslangan;

deputatlar tomonidan saylovchilarga o‘z faoliyati haqida axborot taqdim etishga yuzaki yondashish holatlarining oldini olish va mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyati to‘g‘risida aholi xabardorligini oshirish maqsadida taqdim etiladigan bunday axborot mazmuniga to‘liq, ishonchli va xolis bo‘lishi kabi talablarni qo‘yish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy hokimiyat vakillik organlarining ochiq hay’at majlislarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

onlayn rejimda videokonferensiya orqali og‘zaki so‘rovlarni berish va ijtimoiy tarmoqlar orqali yozma so‘rovlarni yuborish, shuningdek, ularni shaxsan topshirish bo‘yicha takliflar bildirilgan;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborot so‘rovlarini ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish asoslab berilgan;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini, jumladan, transparentlik to‘g‘risidagi qonunlarni amalga oshirishni ularning uyushmalari tomonidan uslubiy jihatdan ta’minlash samaradorligi isbotlangan;

saylovchilarga taqdim etiladigan deputat faoliyati to‘g‘risidagi axborotga kiritilishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxatini belgilash bo‘yicha takliflar kiritilgan;

deputat odob qoidalarida deputat zimmasiga yolg‘on ma’lumot bermaslik majburiyatini yuklash maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborot ochiqligini ular huzurida tuzilgan jamoatchilik kengashlari tomonidan monitoring qilish samaradorligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston va Qozog‘istonda qonunchiligi normalarini, ularning amaliyotda qo‘llanishini xalqaro standartlar va transparentlik ko‘rsatkichlarini, xorijiy davlatlarning bu boradagi ilg‘or amaliyotlarini hisobga olgan holda o‘rganish, shuningdek, sotsiologik so‘rov o‘tkazish va boshqa tadqiqot usullarini qo‘llash orqali ta’minlandi. Ayrim ilmiy xulosa va takliflarning aholi so‘rovlari yakunlari asosida ilgari surilgani, nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilgani, qonunchilik hujjatlariga kiritilgani hamda vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan tartibda rasmiylashtirilgani tadqiqot natijalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning ilmiy ahamiyati mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligi bilan bog‘liq tushunchalar mazmunini yoritish, unda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar, takliflar va tavsiyalarni qonun hujjatlarining ayrim normalarini tushuntirish, davlat organlari transparentligini o‘rganish, huquqshunoslik va boshqaruv fanlarini nazariy jihatdan boyitish imkoniyatini berishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan taklif va tavsiyalardan mahalliy hokimiyat vakillik organlari transparentligining tashkiliy-huquqiy asoslarni takomillashtirish, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik kengashlari tomonidan mazkur jarayonni monitoring qilish, fuqarolarning xabardorligini oshirish, “Konstitutsiyaviy huquqi” va “Mahalliy hokimiyat huquqi” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda qo‘llanilgan:

Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining ochiq hay’at majlislari tushunchasiga ularning sessiyalari va hay’at organlari majlislari, jumladan doimiy va muvaqqat komissiyalar majlislari, ular vakolatlari doirasidagi va foydalanilishi cheklab qo‘yilgan axborotga taalluqli bo‘lmagan masalalar muhokama qilinadigan tadbirlarni kiritish haqidagi taklif “Mahalliy hokimiyat huquqi” modulining ma’ruza matniga kiritilgan (Toshkent davlat yuridik universitetining 2024-yil 6-sentabrdagi ma’lumotnomasi).

Ushbu taklif bilan ochiq o‘tkazilishi shart bo‘lgan mahalliy vakillik organlarining hay’at majlislari aniqlab berilgan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi zimmasiga o‘z majlislarini ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillari ishtirokida ochiq o‘tkazish majburiyatini yuklash to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16noyabrdagi KQ–431-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzuridagi Kompensatsiya komissiyasi namunaviy reglamentining 27-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasining 2023-yil 6-sentabrdagi 66-son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi mahalliy vakillik organlari huzurida tuzilgan hay’at organ – kompensatsiya komissiyasi majlislarining ochiq o‘tishi uchun huquqiy asos yaratgan;

deputat faoliyatining ochiqligi va oshkoraligini, jumladan o‘z faoliyati to‘g‘risida saylovchilarni doimiy xabardor qilib borishini deputat odobi prinsipi sifatida belgilash to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi KQ–476-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatlarining namunaviy odob qoidalari 7-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 11-iyuldagi 11-04/2202-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi bilan deputat tomonidan transparentlik to‘g‘risidagi qonunchilik normalarini bajarmaganligi uchun javobgarlik o‘rnatilgan;

deputat tomonidan saylovchilarga taqdim etiladigan o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotga to‘liq, to‘g‘ri va xolis bo‘lishi kabi talablar qo‘yish to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2023-yil 25-martdagi KQ–476-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashi deputatlarining namunaviy odob-axloq qoidalari 18-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini kuchaytirishga ko‘maklashuvchi komissiyasining 2024-yil 11-iyuldagi 11-04/2202-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi natijasida deputat zimmasiga aholiga to‘liq, to‘g‘ri va xolis axborot berish majburiyati yuklangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari uchta xalqaro va to‘rtta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 10 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (shulardan 1 tasi xorijiy nashrda) e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, o‘rganilayotgan muammoning tadqiq etilganlik darajasi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu qismda tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilganligi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi to‘g‘risida ma’lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborot ochiqligining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, uch paragrafdan tashkil topgan.

Mazkur bobning **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash”** deb nomlangan birinchi paragrafida ommaviy organlar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, transparentligi, axborot ochiqligi, ommaviyligi va oshkoraligi, axborot erkinligi va uni erkin olishga bo‘lgan huquq tushunchalari, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tadqiq etilgan. Tadqiqot natijasida mazkur terminlar mazmuni va ularning o‘zaro aloqadorligi aniqlanib, ularni O‘zbekiston va Qozog‘iston qonunchiligida qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi qonunchilikdagi mahalliy hokimiyat vakillik organlari va boshqa ommaviy organlar transparentligi to‘g‘risidagi normalarni aniq ifodalashga xizmat qiladi, bu esa ularning aniq va samarali ijrosini ta’minlaydi.

Axborot ochiqligi bilan bog‘liq rus tilidagi tushunchalar ular xalqaro standartlarda asosan ingliz tilidan olinganini hisobga olib tahlil qilgan. Tahlil natijasida “transparentlik”, “shaffoflik”, “axborot ochiqligi” kabi tushunchalar sinonim ekanligi, “ommaviylik” ochiq bo‘lishi kerak bo‘lgan narsani anglatishi, “oshkoralik” esa transparentlikdan kengroq tushuncha ekanligi haqida xulosaga kelgan. Oshkoralik axborotni aholiga nafaqat yetkazishni, balki uni tushuntirishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, muallif ko‘pgina mamlakatlarda salbiy ma’noga ega bo‘lgan “propaganda” so‘zi o‘rniga “tushuntirish” so‘zini qo‘llashni tavsiya etadi.

Muallif ommaviy organlar ochiqligi umumiy tushuncha ekanini tan olsa-da, unga faqat transparentlik, hisobdorlik va jamoatchilik ishtirokini emas, balki oshkoralikni ham kiritishni taklif etadi. U O‘zbekiston qonunchiligida davlat organlari faoliyatining ochiqligi transparentlik deb tushunilishini qayd etib, ushbu qonunchilikka tegishli o‘zgartirishlar kiritishni taklif qiladi. U axborotga bo‘lgan va axborotni erkin olish huquqlari bir xil ma’noni anglatmasligini ta’kidlab, birinchisi axborotni izlash, erkin olish va tarqatish huquqlaridan iborat ekanligini aytadi.

Dissertatsiya birinchi bobining **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligi bo‘yicha xalqaro standartlarni shakllanishi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur sohadagi majburiy va tavsiyaviy xalqaro hujjatlarning mazmuni o‘rganilgan. Ushbu hujjatlarda ommaviy organlarning transparentligi axborot olish huquqini ta’minlashning shartlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Universal va mintaqaviy xalqaro huquqiy hujjatlarda axborotni erkin olish huquqining mazmuni, undan kimlar foydalanishi mumkinligi, cheklovlar va davlat organlarining

majburiyatlari kabi minimal talablar belgilangan. BMTning Konvensiyaviy organlari sharhlari va maxsus taomillarda, Ochiq ma’lumotlar to‘g‘risidagi xalqaro xartiyada (2015), IHTTning Ochiq boshqaruv bo‘yicha tavsiyalarida (2017) va boshqa xalqaro hujjatlarda mahalliy hokimiyat vakillik organlarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan.

Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligi bo‘yicha xalqaro standartlarni qo‘llash masalasi birinchi marta 2016-yilda “Ochiq hukumat” xalqaro tashkiloti sammitida qabul qilingan Submilliy ochiq hukumat deklaratsiyasida ko‘tarilgan. Ushbu deklaratsiya doirasida 2024-yilning 31-avgustigacha 20 ta yo‘nalish bo‘yicha qo‘llanmalar nashr etilgan bo‘lib, ularning 5 tasi bevosita mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligi bilan bog‘liq. Yevropa Kengashining mahalliy va mintaqaviy hokimiyat organlari kongressi tomonidan 424- va 435-sonli tavsiyalar qabul qilinib, ularda mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatida transparentlik xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha tushuntirishlar berilgan. Biroq ushbu hujjatlarda veb-saytlarni yuritish, ochiq majlislar o‘tkazish, deputatlar tomonidan saylovchilarni o‘z faoliyati to‘g‘risida xabardor qilish bo‘yicha tavsiyalar berilmagan.

Muallifning ta’kidlashicha, axborotni erkin olish xalqaro standartlarining mazmuni ularning amalga oshirilishi bo‘yicha tadqiqotlarda yanada batafsil ochib beriladi. Masalan, qozog‘istonlik tadqiqotchilar tomonidan axborotni oshkor qilishni tashkil qilish, shu jumladan, davlat organlarining offlayn ochiq majlislarini o‘tkazish tartibini belgilash va axborotni erkin olish to‘g‘risidagi qonun buzilishi uchun ma’muriy javobgarlikni o‘rnatish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishgan. Ushbu takliflarga qo‘shimcha ravishda, muallif mahalliy hokimiyat vakillik organlari veb-saytlariga joylashtirilishi lozim bo‘lgan axborot ro‘yxatini, ularning ochiq majlislarni o‘tkazish tartibini va deputatlar faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarga qo‘yiladigan talablarni belgilash zarurligini ta’kidlaydi.

Dissertatsiyaning “Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirishning huquqiy jihatlari” deb nomlangan birinchi bobining uchinchi paragrafida dissertant mazkur masala bo‘yicha mavjud fikrlarni o‘rganib chiqib, ularning mavhumligi va murakkabligini asoslab bergan. Muallif “mexanizm – o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan va muayyan tartibda amalga oshiriladigan aniq operatsiyalar, ya’ni muayyan maqsadga erishish uchun tashkiliy-huquqiy vositalarni qo‘llash” degan ta’rifga qo‘shiladi. Muallifning fikricha, ushbu ta’rifdan kelib chiqib, tadqiqotchilar transparentlik mexanizmining yangi vositalarini aniqlashga intilib, uning mazmunini yanada murakkablashtirgan va mavhumlashtirgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, muallif transparentlik mexanizmini: axborotni aniqlash, uni oshkor qilish usullarini qo‘llash va baholash kabi asosiy bosqichlarga ajratishni taklif qiladi. Bu mazkur mexanizmni asosiy maqsad – transparentlikka erishish sari samarali yo‘naltirish imkonini beradi. Muallif xodimlar huquqiy madaniyatining darajasi, ularning kasbiy sifatlari, axborotni erkin olish huquqini himoya qilish, boshqa unsurlarni shaffoflik mexanizmi faoliyat ko‘rsatishining shartlari sifatida ko‘rishni taklif etadi.

Ikkinchi bob **“O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborotni oshkor qilish usullarini takomillashtirish”** deb nomlanib, uch paragrafdan iborat.

Ushbu bobning **“Axborot so‘rovlari bilan ishlashni yaxshilashning huquqiy jihatlari”** deb nomlangan birinchi paragrafida O‘zbekiston, Qozog‘iston, boshqa ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligining tegishli normalari va ularni qo‘llash amaliyoti o‘rganilgan. O‘zbekistonda ushbu jarayonni normalari bir-birini takrorlashi, to‘ldirishi va bekor qiladigan uchta qonun bilan tartibga solinishi aniqlandi. Shuningdek, O‘zbekiston va Qozog‘iston qonunchiligida o‘xshashliklarga qaramay, axborot so‘rovi shakllari murojaat shakllariga nisbatan kamligi aniqlandi. Ushbu holatlarni inobatga olib, dissertant O‘zbekiston qonunchiligini kodifikatsiya qilish, unda videokonferensiya va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot so‘rovi yuborish shakllarini mustahkamlash taklifini bildirdi.

Dissertant Qozog‘iston qonunchiligida og‘zaki so‘rash mumkin bo‘lgan axborot ro‘yxatining belgilab qo‘yilishini ijobiy baholaydi, uning yopiqligini va axborotni erkin olish huquqini cheklashini tanqid qiladi. Gonkong amaliyotini hisobga olib, u oddiy tarzda taqdim etilishi mumkin bo‘lgan boshqa axborotni taqdim qilishni taklif qiladi, masalan, og‘zaki javoblar, bukletlar yoki standart shakllar taqdim etish orqali. U mazkur normani va Qozog‘iston misolida axborot berish xarajatlari evaziga haq to‘lashni O‘zbekistonda joriy etish, ikkala davlatda esa xorijiy davlatlar amaliyotini hisobga olgan holda axborot so‘rovlariga javob berish muddatlarini qisqartirish taklifini beradi.

Ikkinchi bobning **“Axborotni faol tarzda oshkor qilish usullarini takomillashtirishning tashkiliy masalalari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur usullarning turlari va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlangan. O‘zbekiston va Qozog‘iston hamda boshqa davlatlar qonunchiligini qiyoslash axborotni oshkor qilish usullarining turlarini belgilashda farqlar va kamchiliklar mavjudligi, ayrimlarining nomlanishi bir xil, ammo mazmuni har xil yoki buning aksi ekanligi aniqlandi. Qozog‘iston Respublikasining 401-V QRZ-sonli qonunida “ochiqlik standartiga rioya qilishni” axborotni oshkor qilish usullari ro‘yxatidan chiqarish zarurligi asoslangan, chunki ushbu standartda barcha usullarga talablar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–369-sonli Qonunida esa boshqa usullarning qamrab olinishini bartaraf etish maqsadida “axborotni e’lon qilish (chop etish)” usulining nomini “axborotni rasmiy manbalar va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish” deb o‘zgartirish taklif etilgan.

Dissertant mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborot-kutubxona va arxiv fondi orqali to‘liq axborot berish maqsadida ularning ish yuritish hujjatlari nomenklaturasi va veb-saytlarida joylashtiriladigan axborot ro‘yxatini birxillashtirishni taklif etdi. Buning uchun u birinchisiga axborot so‘rovlarini, ikkinchisiga esa vakillik organlari va ularning doimiy komissiyalari hisobotlarini kiritishni taklif qildi. Muallif nafaqat vakillik organlari va ularning doimiy komissiyalari majlislari, balki partiyaviy birlashmalar, ishchi guruhlar va boshqa hay’at organlarining majlislari ham ochiq o‘tkazilishi, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali axborot tarqatish zarurligini asoslab berdi. O‘zbekistonda axborotni erkin olishni ta’minlash usullarini tartibga solishda ruxsat

berish usuli o‘rniga taqiqlash usulini qo‘llashni taklif qilib, mahalliy hokimiyat vakillik organlariga ularning yangi turlarini o‘zlari belgilash vakolatini berishni tavsiya etdi.

Ikkinchi bobning **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining internet resurslarini raqamlashtirish sharoitida yuritish”** deb nomlangan uchinchi paragrafida davlat organlarining rasmiy veb-saytlariga va ularning mazmuniga qo‘yiladigan talablar, “Axborot egalarining ochiqligi standarti” O‘zbekiston va Qozog‘istonda qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ularning amaliyotda qo‘llanishi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida ikkala davlat mahalliy hokimiyat vakillik organlarining veb-saytlari tuzilishida ayrim ma’lumotlarni joylashtirish nazarda tutilmagani, ko‘rsatilgan ma’lumotlarning yo‘qligi yoki yangilanmaganligi holatlari aniqlandi. Shu sababli, "Mahalliy hokimiyat vakillik organlari veb-saytlari orqali ularning faoliyati to‘g‘risida ma’lumot olganmisiz va kelajakda bunday saytlardan foydalanmoqchimisiz?" degan savolga O‘zbekistonda tegishlicha 25 % va 17,5 % respondentlar, Qozog‘istonda esa 13,8 % va 29,8 % respondentlar ijobiy javob bergan.

Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining veb-saytini samarali yuritish maqsadida muallif ularda joylashtirilishi lozim bo‘lgan axborot ro‘yxatini tasdiqlash taklifini bildirdi. Muallifning ta’kidlashicha, Qozog‘iston Respublikasining 401-V QRZ Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–369-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-sonli Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarorida belgilangan davlat organining veb-saytida joylashtiriladigan axborot ro‘yxatida mahalliy hokimiyat vakillik organlarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan. Uning fikricha, bunday axborot ro‘yxatiga mahalliy hokimiyat vakillik organlari va ularning kollegial organlari faoliyati, jumladan, ochiq majlislar o‘tkazish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kiritish zarur. Shuningdek, u Qozog‘iston tajribasini inobatga olib, bir necha bor so‘ralgan axborotni ham ushbu ro‘yxatga kiritishni taklif etadi.

Uchinchi bob **“O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborotni oshkor qilish jarayonini boshqarish istiqbollari”** deb nomlanib, uch paragrafdan iborat.

Ushbu bobning **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlari tomonidan axborotni oshkor qilishni tashkil etish”** deb nomlangan birinchi paragrafida mahalliy hokimiyat vakillik organlari, ularning apparatlari va uyushmalarining tegishli vazifalari o‘rganilgan. 2014-yil 5-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ–369-sonli Qonunining 10-moddasiga ko‘ra, mahalliy hokimiyat vakillik organlari apparatida o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tayyorlash va tarqatish, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik bilan o‘zaro hamkorlikni ta’minlash bo‘yicha tuzilmalar tashkil etilishi yoki bu vazifalar xodimlardan biriga yuklatilishi kerak. Umuman olganda, mahalliy hokimiyat vakillik organi apparatining vazifasi shunday funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston va Qozog‘istonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari apparatlari xodimlarining soni cheklanganligi sababli ularda axborot xizmati

bo‘yicha alohida tuzilmalar tashkil etilmagan. Shuningdek, xodimlarning lavozim majburiyatlarida ochiqlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ayrim normalarini bajarish ko‘zda tutilmagan. Muallif mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda mahalliy hokimiyat vakillik organlari faoliyatini uslubiy jihatdan ta’minlash muhimligini ta’kidlaydi. Xalqaro tajribani inobatga olgan holda, muallif O‘zbekistonda ularning uyushmasini tashkil etish, Qozog‘istonda esa mavjud uyushma faoliyatini faollashtirishni taklif etadi.

Uchinchi bobning **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlari transparentligini baholash tizimini takomillashtirish"** deb nomlangan ikkinchi paragrafida mazkur sohadagi huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilmiy ishlar o‘rganilgan. Jahonda ochiq hukumat (qonun ustuvorligi indeksining 3-omili) va ochiq byudjet indekslari, axborot olish huquqi (RTI) va ochiq ma’lumotlar (ODIN) reytinglari keng qo‘llaniladi. Ushbu indeks va reytinglar asosida O‘zbekiston va Qozog‘istondagi davlat organlarining axborot ochiqligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. O‘zbekistonda bu mezonlar davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborot ochiqligini baholash metodikasida, Qozog‘istonda esa davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash tizimida belgilangan. Biroq ushbu mezonlar asosida mahalliy hokimiyat vakillik organlarining o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinmagan va ularning faoliyati monitoringi o‘tkazilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati tomonidan tasdiqlangan namunaviy mahalliy hokimiyat vakillik organi mezonlarida transparentlikning ayrim me’yorlari aks ettirilmagan. Bundan tashqari, ushbu mezonlar asosida monitoring o‘tkazilganligi haqida ma’lumot mavjud emas. Muallifning fikricha, mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentligi mezonlari ilmiy tadqiqotlarda batafsil ishlab chiqilgan. Qozog‘istonda nodavlat tashkilotlar tomonidan Mahalliy byudjetlar ochiqligi indeksi va mahalliy hokimiyat vakillik organlarining ochiqligi mezonlari ishlab chiqilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda deputatlarning saylovchilarga taqdim etadigan axborotning mazmuni belgilangan. Biroq Qozog‘istonda bu mezonlar bo‘yicha bir martalik monitoringlar o‘tkazilgan bo‘lsa, O‘zbekistonda umuman o‘tkazilmagan, buni nodavlat tashkilotlarining imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlash mumkin. Muallifning fikricha, bunday monitoringni mahalliy hokimiyat vakillik organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari samarali tarzda amalga oshirishi mumkin.

Uchinchi bobning **“Mahalliy hokimiyat vakillik organlarining transparentlik sohasidagi javobgarligini kuchaytirish”** deb nomlangan uchinchi paragrafida konstitutsiyaviy, siyosiy, jinoyat, ma’muriy va intizomiy javobgarlikning mazkur sohadagi asoslari tadqiq etilgan. O‘zbekistonda mahalliy hokimiyat vakillik organlari qarorlarini bekor qilish, deputatni chaqirib olish va uning vakolatlarini vakillik organi tomonidan muddatidan ilgari tugatish kabi konstitutsiyaviy va siyosiy javobgarlik turlari mavjud ekanligi, Qozog‘istonda esa faqat oxirgisi qo‘llanishi aniqlandi. Shuningdek, O‘zbekiston Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 215^7-moddasi rus tiliga noto‘g‘ri tarjima qilingani tufayli, go‘yo faqat ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtiriladigan, ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlar ro‘yxatiga kiritilgan ma’lumotlarni e’lon qilmaganlik yoki to‘liq e’lon qilmaganlik, e’lon qilish muddatlariga va tartibiga

rioya etmaganlik yoki ma’lumotlarni buzib ko‘rsatganlik uchungina javobgarlik belgilangandek bo‘lib qolgan. Qozog‘iston Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksining 456-1-moddasida faqat axborotga ega bo‘lish huquqini noqonuniy ravishda cheklash uchun, 456-2-moddasida esa yolg‘on axborot tarqatish uchun javobgarlik belgilangan.

Muallif O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining o‘zbek tilidagi matnida 215^{7}-modda axborot ochiqligining barcha normalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilashini ta’kidlaydi va bu amaliyotni Qozog‘istonda ham qo‘llashni taklif etadi. O‘zbekiston va Qozog‘istonning jinoyat qonunchiligida transparentlik to‘g‘risidagi ko‘plab normalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilanmagan bo‘lsa-da, uning fikricha, bu kamchilik mansabga sovuqqonlik bilan qarash va hokimiyat harakatsizligi uchun javobgarlik bilan qoplanadi. Bundan tashqari, u O‘zbekistonda bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxs sifatida nafaqat mansabdor shaxslar, balki davlat vazifasini bajaruvchi barcha shaxslar belgilanishi lozimligini, Qozog‘istonda esa saylov komissiyalarining deputat tomonidan o‘z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi holatlarini ko‘rib chiqish tartibini belgilashni taklif qiladi.

XULOSA

Mahalliy hokimiyat vakillik organlari tarnsparentligini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy masalalarini o‘rganish natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

